

**INKLYUZIV TA'LIMNING AHAMIYATI VA AMALIYOTI
BARCHA O'QUVCHILAR UCHUN TENG IMKONIYATLAR
YARATISH**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti

pedagogika ta'lim yònalishi,

Abdullayeva Gulnora Otabek qizi,

gulnoraabdullayeva154@gmail.com

Suvonqulova Zulayho Nozimjon qizi.

zulayhosuvonqulova2@gmail.com

Murotaliyeva Marjona Akmal qizi.

marjonamurotaliyeva6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmuni, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi muhim o'rni va amaliyotga tadbiq etilishi masalalarini keng yoritadi. Tadqiqotlar inklyuziv ta'lim orqali nogironligi bo'lgan va boshqa imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli, teng huquqli ta'lim berish imkoniyati yaratilishini, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy integratsiya va birdamlikni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Maqolada inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, mavjud muammolar va ularni yechish yo'llari tahlil qilinadi. Yakunda, barcha o'quvchilar uchun teng huquqli ta'lim muhitini tashkil etishdagi inklyuziv yondashuv ahamiyati ta'kidlanadi.

Inklyuziv ta'lim bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy g'oyasi — o'quvchilarni ularning individual imkoniyat va ehtiyojlariga qaramay bir xilda o'qitishdan iborat. Bu printsip ijtimoiy adolatning ta'minlanishi va har bir bolaning o'z qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishini imkon qadar ta'minlashga xizmat qiladi. Dunyo bo'yicha mamlakatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali ta'limdagi tenglik va farqliliklarni bartaraf etishga intilmoqda.

***Kalit soʻzlar:** Inklyuziv ta'lim, teng imkoniyatlar, ijtimoiy integratsiya, maxsus pedagogika, o'quv jarayoni*

Kirish qismi:

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatda har bir shaxsning imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Shu jihatdan inklyuziv ta'lim tamoyillari muhim o'rin tutadi. Inklyuziv ta'lim — bu nogironligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj, til yoki madaniy tafovutlarga ega bolalar bilan barcha bolalarni birgalikda o'qitish orqali bilim olishda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yondashuvdir.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu borada bir qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Jumladan: „Talim to'g'risida“gi qonun (yangi tahriri -2020-yil 23-sentabr 130-modda). Inklyuziv talim tushunchasi kiritilgan bo'lib nogironligi bo'lgan bolalar va maxsus ehtiyojli shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi belgilangan.

“Nogiron huquqlari to'g'risida”gi (2018-yil 15-oktabr).

23-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarni ta'lim olish huquqi va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish majburiyligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkasining 2021-yil 2-martdagi 104-sonli qarori. “Inkluiziv ta'limni tashkil etish to'g'risidagi nizom”ni tasdiqlagan.

Ushbu nizomda inklyuziv sinf va guruhlarini tashkil etish tartibi, pedagoglar tayyorgarligi va moddiy-texnik sharoitlar aniq belgilangan.

Inklyuziv ta'limda bir qator muhim ixtirolar va kashfiyotlar amalga oshirilgan. Masalan, Lui Brayl tomonidan yaratilgan Braille yozuvi ko'zi ojiz o'quvchilarga mustaqil o'qish va yozish imkonini berdi. Imo -ishora tili esa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot vositasi bo'ladi. Shuningdek, screen reader, speech-to- text kabi dasturlar nogironligi bo'lgan

o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtirdi. Universal dizayn ta'limda modeli esa barcha o'quvchilar ichun teng imkoniyat yaratishga xizmat qilmoqda. Shu kabi innovatsiyalar inklyuziv ta'limni yanada samarali va qulay qilmoqda. Asosiy qism: Inklyuziv ta'lim — bu nogironligi yoki o'rganishdagi qiyinchiliklari bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy zaif guruh vakillaridan bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida o'qishi imkonini beruvchi ta'lim tizimidir. Bu jarayon quyidagi tamoyillarga tayangan:

- Muvofiqlashtirilgan o'quv muhiti yaratish: Maktab infratuzilmasi (ramplar, maxsus jihozlar), o'quv materiallari va texnologiyalar o'zgaradi. Bu sharoit har bir o'quvchi uchun qulay bo'lishi kerak.

- Individual yondashuv: Har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash, maxsus pedagoglarning faol ishtiroki.

Inklyuziv ta'lim — bu nafaqat pedagogik yondashuv, balki insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy harakatdir. Barcha o'quvchilarga teng sharoitlar yaratish orqali biz ularning iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishga, barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qilamiz. Kelajak jamiyati aynan bugungi kunda yaratilayotgan teng imkoniyatlar poydevoriga tayanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – (yangi tahriri, 2020-yil)
2. 2021–2025-yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-sonli qarori (2020-yil)
4. Soliev N.H., Muxitdinova F. "Inklyuziv ta'lim asoslari" – Toshkent, 2021 Norqobilova D. "Maxsus pedagogika" – Toshkent, 2020